Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 3-oktabr, shanba,
86 (24.266)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Eldan ayrilguncha jondan ayril

Osiyo konstitutsiyaviy sudlari forumi



Samarqand shahrida Osiyo konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasi (AACC)ning VII Kongressi bo‘lib o‘tdi.

“Raqamlashtirish va sun’iy intellekt sharoitida konstitutsiyaviy odil sudlov” mavzusiga bag‘ishlangan nufuzli anjumanda 18 davlatdan kelgan konstitutsiyaviy va oliy sudlar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda yetakchi huquqshunos olimlar – 100 nafarga yaqin mehmon ishtirok etdi.

Anjumanning rasmiy ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kongress ishtirokchilariga murojaatini Prezident Administratsiyasi rahbarining sud tizimini isloh qilish bo‘yicha o‘rinbosari Nodira Hakimova o‘qib eshittirdi.

Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasi (AACC – Association of Asian Constitutional Courts and Equivalent Institutions) – Osiyo mintaqasida konstitutsiyaviy yurisdiksiyani amalga oshiruvchi sudlar va shunga teng vakolatga ega institutlarni birlashtiruvchi mintaqaviy professional hamkorlik maydonidir. Assotsiatsiya 2010-yil iyul oyida Indoneziyaning Jakarta shahrida tashkil etilgan va bu haqdagi Jakarta deklaratsiyasi Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Mongoliya, Filippin, Tailand va O‘zbekiston konstitutsiyaviy yurisdiksiya institutlari tomonidan imzolangan.

O‘zbekiston Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assotsiatsiyasining asoschi a’zolaridan biri hisoblanadi. 2025-yil noyabridan 2027-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Assotsiatsiyaga raislik qilmoqda.

Kongressning ochilish marosimida Assotsiatsiyaning ayni vaqtdagi prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi Mirza-Ulug‘bek Abdusalomov mamlakatimiz raisligida amalga oshirilayotgan ishlar hamda tashkilot oldida turgan vazifalar haqida so‘z yuritdi.

Kongressda “Raqamli transformatsiya sharoitida sudyalar mustaqilligi, inson huquqlari va qonun ustuvorligi”, “Konstitutsiyaviy nazoratda sun’iy intellekt: imkoniyatlar, huquqiy chegaralar va protsessual kafolatlar” mavzuidagi sessiyalar o‘tkazildi.

Anjuman yakunida raqamlashtirish va sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan davrda insonning asosiy huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy darajada himoya qilish, sudyalar mustaqilligining protsessual va texnologik kafolatlarini mustahkamlash hamda Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalaridagi konstitutsiyaviy nazorat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

A.ISROILOV.





USTOZLAR SHARAFLANDI

O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Samarqand shahrida bayram tadbiri o‘tkazildi.

Marosimga ta’lim sohasi xodimlari va faxriylari bilan birga jamiyat hayotining boshqa tarmoqlarida fidokorona mehnat qilib, chinakam ustozlik maqomiga erishgan insonlar, yoshlar vakillari taklif etildi.

Viloyat hokimi Adiz Boboyev tadbir qatnashchilari va ularning timsolida samarqandlik barcha o‘qituvchi va murabbiylarni, ustozlarni bayram bilan tabrikladi.

– Bugungi kunda viloyatimizda 1365 ta maktab, 8 ta akademik litsey, 62 ta texnikum va 17 ta oliy ta’lim muassasasi, ellikdan ortiq sport, musiqa va san’at maktablarida hayotini dunyodagi eng ulug‘ va olijanob ishga bag‘ishlagan muhtaram ustoz va murabbiylarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda, – dedi A.Boboyev. – Bugun maktablarimizdagi o‘qituvchilarning sifat tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 27 foizdan 32 foizga oshdi. Oliy ta’limda ilmiy salohiyat, ya’ni ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar ulushi o‘rtacha 60 foizga yetkazildi. Bayram arafasida viloyatimizdan 7 nafar ustozlarimiz davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. 78 nafar o‘qituvchilarimiz “Xalq ta’limi a’lochisi” va “Xalq ta’limi fidoyisi”, 20 nafari “O‘rta maxsus va professional ta’lim a’lochisi”, 53 nafari “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi. Bularning barchasi samarqandlik ustoz va murabbiylarning zahmatli mehnatlari e’tirofidir.

Bayram tadbirida bir guruh faol va tashabbuskor o‘qituvchilar, turli sohalarda samarali mehnat qilgan faxriylar viloyat hokimligining tashakkurnoma hamda bayram sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Ma’rifatparvar jadid Abdulla Avloniyning nevarasi Zarnews.uz mehmoni



“ZARAFSHON”ning YouTube *sahifasidagi videomaterialarni kuzatib boring!*

Kuz mavsumida 11 million 355 mingdan ziyod ko‘chat ekiladi

Prezident farmoniga ko‘ra

Prezidentimizning shu yil 23-sentabr kuni qabul qilingan «“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda mahallalar rolini kuchaytirish va hududlarning yashillik darajasini tubdan oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonida kuz mavsumida viloyat bo‘yicha 11 million 355 ming 500 dona manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekish belgilangan.

Ushbu farmon mahallalarda qulay ekologik muhit yaratish, ko‘chatlarning yashovchanligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni sohaga keng joriy etishni nazarda tutadi.

«3-30-300» XALQARO STANDARTI

Farmonga ko‘ra, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda har bir odam uchun 3 ta daraxt, 30 foiz daraxt soyasi va 300 metr atrofida yashil hudud bo‘lishini ta’minlashni nazarda tutuvchi «3-30-300» xalqaro standarti joriy etish orqali mahallaning yashillik darajasi oshiriladi. 2030-yilga qadar yashil bog‘ va parklar soni 1023 taga yetkaziladi va 2026-yil kuzida 257 tasi barpo etiladi. Har bir tuman va shaharda kamida 5 tadan, uzunligi 10 kilometrdan kam bo‘lmagan soyali sayr ko‘chalari tashkil etiladi.

Shu yilning 1-oktabridan respublikada tozalik va ozodalik dolzarb ikki oyligi o‘tkaziladi. Shu sanadan yashil hududlar joylashuvini aniqlash, yerlarni tayyorlash, ko‘chat va butalar zaxirasini yaratish choralari ko‘riladi. 1-noyabrdan esa ko‘chat va butalarni ekish mavsumiga start beriladi. Bu jarayon 10-noyabrdan boshlanadi.

«MAHALLANI YASHILLASHTIRISH» PAKETI

2027-yil 1-yanvardan “Yashil makon” umummilliy loyihasini mahalla darajasida amalga oshirishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilib, “Yashil mahalla” loyihasi doirasida «Mahallani yashillashtirish» paketi joriy etiladi. Ekologik jarimalarning 90 foiz qismi Mahalla jamg‘armasiga yo‘naltiriladi. Mahalla jamg‘armasi mablag‘larining kamida 30 foizi mahallani yashillashtirish xizmatlari (ko‘chat, o‘g‘it, sug‘orish)ga sarflanadi. Har bir mahallaga O‘rmon agentligi tomonidan o‘rmonchi-murabbiy xodim biriktiriladi.

«YASHIL LOT», «YASHIL AI»

Aholining yashil bog‘larni yaratish bo‘yicha talab va takliflarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2027-yil 1-yanvardan «Yashil lot» tizimi joriy etiladi. Shuningdek, suv kam talab qiladigan va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni ekishga qaratilgan kseriskeyping usuliga o‘tiladi. Tajriba tariqasida olti oy muddatda «Yashil AI» assistenti moduli ishga tushirilib, sun’iy intellekt va sun’iy yo‘ldosh orqali ko‘chat ekish maydonlari, mos daraxt turlari va xavflar avtomatik aniqlanadi.

Farmon bilan Ekologiya qo‘mitasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda viloyat hokimligi 3 oy muddatda Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan Urgut tumanining yashil dasturini amalga oshirishni boshlash belgilangan. Shuningdek, viloyat hokimligi Ekologiya qo‘mitasi va O‘rmon agentligi bilan birgalikda 3 oy muddatda botanika va dendrologiya bog‘lari, o‘rmon xo‘jaliklari va obodonlashtirish boshqarmalarida kompostlash va mulchalash tizimini yo‘lga qo‘yadi.

Samarqand shahri BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda «Yashil shaharlar» tashabbusiga jalb etiladi. Loyiha doirasida shahar yashilligini boshqarish, havo sifatini yaxshilash va mikroiqlimni yumshatish bo‘yicha 2027-yil iyun oyiga qadar amaliy chora-tadbirlar va hamkorlik «yo‘l xaritasi» ishlab chiqiladi.

Bir murojaat izidan

“Obod qishloq”dagi elektr tarmog‘i qachon yangilanadi?

Tahririyatimizga Past Darg‘om tumani Turkman mahallasi Yerteshar qishlog‘ida yashovchi O‘ktam Murodov va boshqalardan murojaat keldi. Unda qishloq 2022-yilda «Obod qishloq» dasturi asosida obodonlashtirilgani, ammo 45 ta xonadon joylashgan hududda elektr tarmoqlari yangilanmay qolgani bayon etilgan.

Murojaatni o‘rganish maqsadida qishloqda bo‘lganimizda, haqiqatan ham ayrim elektr ustunlari ancha eskirganiga guvoh bo‘ldik. Aholi aytishicha, yo‘l yoqalaridagi ayrim yog‘och ustunlar 1979-yilda o‘rnatilgan. Hozir ularning ba’zilari qiyshaygan, simlari osilib qolgan.

- Yuk mashinasi olib kelishga ham qo‘rqamiz, simlar tegib ketishi mumkin, - deydi O‘ktam Murodov. - Bir necha bor qo‘lbola elektr tarmoqlarimiz yonib ketdi. Tok kuchlanishi pastligi sababli maishiy texnika vositalari ham ishdan chiqyapti.

Aholi muammo yuzasidan tuman hokimligi, viloyat elektr tarmoqlari korxonasi va boshqa mutasaddi idoralarga bir necha bor murojaat qilgan. Dastlab kadastr hujjatlari bilan bog‘liq masala ko‘tarilgan. Keyin hujjatlar rasmiylashtirilgan bo‘lsa-da, elektr tarmog‘ini yangilash masalasi hamon hal etilmagan.

- Haqiqatan ham Yerteshar qishlog‘ining bir qismida «Obod qishloq» dasturi doirasida elektr tarmoqlari yangilanmay qolgan, - **deydi Past Darg‘om tumani elektr tarmoqlari korxonasi rahbari Umid Salimov.** - Bunga mablag‘ yetishmasligi sabab bo‘lgan. Tuman budjetidan mablag‘ ajratilsa, ishlar zudlik bilan amalga oshiriladi.

Demak, muammo bor. Ammo aholini bir savol o‘ylantirmoqda: mablag‘ qachon ajratiladi va muammo hal bo‘ladimi?

Xo‘sh, 45 xonadonda yashovchilar yana qancha vaqt kutishi kerak? Yoki eski ustunlardan biri qulashi, simlar uzilishi, biror falokat bo‘lishini kutish kerakmi?

«Obod qishloq» dasturining maqsadi qishloq aholisi uchun munosib yashash sharoiti yaratish emasmi? Agar ko‘cha obod bo‘lib, xonadonga suv kirsa-yu elektr tarmog‘i xavfli va eski holatda qolsa, buni to‘liq obodonlashtirish deb atash mumkinmi?

Aholiga «mablag‘ ajratilsa, qilib beramiz» degan umumiy javob emas, aniq yechim kerak. Yerteshar aholisi imtiyoz yoki alohida sharoit so‘rayotgani yo‘q. Ular boshqa hududlardagi aholi kabi oddiy, xavfsiz va zamonaviy elektr ta’minotini talab qilmoqda.

«Obod qishloq» deganda faqat ko‘chalarni obod qilish yoki ichimlik suvi tarmog‘ini tortish emas, aholi uchun xavfsiz va munosib yashash sharoitini yaratish ham nazarda tutiladi.

Yertesharliklar va’da emas, aniq amaliy natija kutmoqda. 45 xonadon aholisining yillar davomida eski va xavfli elektr tarmoqlaridan foydalanib kelayotgani esa bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Dilmurod TO‘XTAYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Yilning birinchi yarmida 273 ta sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari buzdirildi

Zarafshon

KAMBAG‘ALLIK chorasizlik emas

YOKI AHOLI DAROMADLARI QAY TARIQA OSHIRILAYOTGANI XUSUSIDA AYRIM RAQAMLAR



Yaqinda davlatimiz rahbari ayni masala yuzasidan tanqidiy-tahliliy yig‘ilish o‘tkazdi. Tabiiyki, boshqalarda bu borada Samarqandda amalga oshirilayotgan ishlar haqida savollar tug‘ilgan. Shundan kelib chiqib bu boradagi ayrim ma’lumotlarni o‘rtoqlashishni lozim topdim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bundan 5 yil avval kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar boshlangan edi. O‘sha davrda viloyatimizda 140 mingta kambag‘al oila bo‘lib, kambag‘allik darajasi 14 foizni tashkil qilar edi.

O‘tgan davrda ularga 2,4 trillion so‘mlik (shundan 2,3 trillion so‘m imtiyozli kreditlar, 125 milliard so‘mlik ssuda va subsidiyalar) moliyaviy resurslar ajratildi. Natijada kambag‘allik darajasi 4,4 foizgacha tushirildi.

Joriy yilning 8 oyida 39,3 mingta oilaga 53,7 mingta xizmatlar ko‘rsatildi. Xususan, 14,8 ming fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, 4,9 ming fuqaroga 111 milliard so‘mlik imtiyozli kredit, 5,2 ming fuqaroga 19,1 milliard so‘m ssuda va subsidiya ajratildi. Shuningdek, 30 ming fuqaro tadbirkorlikka jalb qilindi, 2,6 ming fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi.

Prezidentimiz yaratib bergan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanib aholini kambag‘allikdan chiqarishda bir qator tajribalardan keng foydalanilyapti.

PARRANDACHILIK – MO‘L-KO‘LCHILIK

Davlatimiz rahbari Narpayga tashrifi chog‘ida aholi xonadonlarida parranda boqishni rivojlantirish bo‘yicha topshiriq bergan edi. Shunga ko‘ra, “Narpay tajribasi” yaratilib, aholi xonadonlarida kooperatsiya asosida parranda boqish yo‘lga qo‘yildi. Buning uchun “Navobod naslli parranda” korxonasiga 3 yil muddatga 30 milliard so‘mgacha foizsiz ssuda va 50 milliard so‘mlik kredit resurslari ajratilmoqda. Korxona esa kambag‘al oilalarga 200-300 kvadrat metrli yengil konstruksiyali tovuqxona qurib beryapti.

Bugungacha 63 ta xonadonda yengil konstruksiyali tovuqxona qurib berildi. Yana 15 tasida qurish ishlari davom ettirilmoqda. Natijada 63 ta kambag‘al oilalarning 126 nafar ishsiz a’zolari doimiy ish bilan band qilindi.

Misol uchun, Payariqning Navbahor mahallasida kambag‘allik reestrida turuvchi fuqaro Sharof Sharipovning oilasi 4 kishidan iborat. 8 sotixli tomorqasining 2 sotixida 3000 ta jo‘ja boqish uchun yengil konstruksiya qurib berilib, jo‘ja boqishni boshladi.

Xonadon dastlabki bosqichda 40 kun davomida 3000 ta jo‘jani parvarishlab, tayyor mahsulotni sotish evaziga barcha xarajatdan tashqari 14 million so‘m sof foyda oldi. Yiliga 8 siklda tovuq yetishtirishni hisobga olsak, 112 million so‘m sof daromadga ega bo‘ladi.

MEHNATI KAM, DAROMADI KO‘P SOHA

Prezidentimizning sun’iy intellektdan foydalanib ishlash bo‘yicha bergan topshirig‘iga ko‘ra, har bir mahallaning o‘sish nuqtalarini aniqlab, loyihaviy yondashuv asosida kreditlar aniq maqsadlarga yo‘naltirilmoqda.

Misol uchun, Bulung‘ur tumanining Beshkuvi mahallasi sun’iy intellekt yordamida o‘rganildi. Iqlimi, tuproq unumdorligidan kelib chiqib, mahallada yangi mahsulot malina ekish bo‘yicha xulosa olindi. Shu asosda ishlar tashkil qilinib, bahorda 235 ta aholi tomorqasida 3 gektar, ijara yerlarida 3,5 gektar maydonda malina ekildi.

Yaqin kunlarda yana 5,5 gektar maydonga malina ekiladi. Natijada ushbu mahallaning malinaga ixtisoslashuvi 81 foizga yetkazilib, ishsizlik va kambag‘allikdan holi mahallaga aylantiriladi.

Ma’lumot uchun, 10 sotix tomorqadagi malinadan yil davomida 60-70 million so‘mgacha daromad olinadi. Qo‘shimcha kimyoviy o‘g‘itlar talab etilmaydi, faqatgina doimiy suv qo‘yib turilsa bas.

Ushbu malina yo‘nalishidagi tajriba Jomboyda 4 ta hamda Toyloqda 6 ta mahallada joriy qilindi.

ISSIQXONA – KATTA DAROMAD MANBAI

“Og‘ir toifa”dagi Paxtachi tumanida yil boshida ishsizlik 5,4 foiz va kambag‘allik 3,6 foizni tashkil qilar edi. Har bir mahallaning o‘sish nuqtasidan kelib chiqib, 3,7 mingta loyihaga 312 milliard so‘m kreditlar yo‘naltirildi. Natijada ishsizlik 3,6 foiz, kambag‘allik 1,8 foizga tushdi.

Jumladan, Yobu mahallasida issiqxona sohasini rivojlantirishga xulosa qilindi. Mahallaga biriktirilgan “Xalq banki” tomonidan 134 ta xonadonga issiqxona tashkil qilish uchun 3,9 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Natijada 493 fuqaro doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi, 378 fuqaroning daromadi oshirilib, mahallaning ixtisoslashuvi 95 foizga yetkazildi.

Aniq misolga kelsak, mahallada istiqomat qiluvchi Charos Eshtuxtarovaga 8 sotix issiqxona tashkil etishga 50 million so‘m kredit ajratilib, biznesini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashildi. Ayni paytda u issiqxonadan oyiga o‘rtacha 10-12 million so‘m daromad qilish barobarida 2 nafar fuqaroni doimiy ish bilan ta’minladi.

Xuddi shunday sun’iy intellekt xulosasi asosida qo‘shni Quvondiq, Toma, Mirzo Nodim, Burqut, Sardoba va Ko‘rpa mahallalarida 582 xonadonda issiqxonalar tashkil qilinib, ushbu maqsadlarga 21 milliard so‘m kreditlar ajratildi. Bu orqali 4,1 ming fuqaro doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

ENDI IMKONSIZLIK QIYNAMAYDI...

Yana bir tajriba - uzoq yillardan buyon tomorqasini sug‘orish imkoniyati bo‘lmagan 45 ta mahallada 9,5 milliard so‘mlik subsidiya hisobidan 52 ta quduq qazib berildi. Bu orqali 1,5 ming xonadonning 225 gektar yer maydonini sug‘orish bilan birgalikda aholining qo‘shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi.

Misol uchun, Bulung‘urdagi Beshqo‘ton mahallasida kambag‘allik reestrida turuvchi Hoshim Murodqosimovning tomorqasida 200 million so‘m subsidiya hisobidan 1 ta quduq va 10 kVTlik quyosh panellari o‘rnatib berildi. Natijada mahalladagi 97 ta xonadonning 11 gektar tomorqasida qo‘shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi.

Umuman, aholi daromadini oshirishda mahallani ixtisoslashtirish amalda zo‘r natija beryapti. Sababi bir xil mahsulot ekilganda, mahsulot hajmi, sotish bozori va uning logistikasi aniq bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan o‘tgan 8 oyda 130 ta mahalla chuqur ixtisoslashtirilib, ular soni 439 tadan 555 taga yetkazildi. Buning uchun 2,7 ming xonadonga 40 milliard so‘m imtiyozli kredit, 472 ta xonadonga 6 milliard so‘m ssuda va subsidiya berildi.

KASB-HUNAR O‘RGATISH, O‘QITISH

Iqtisodiyot tarmoqlarining tez sur’atlardagi o‘sishi bilan birgalikda aholi yashash sharoitlari ijobiy tomonga o‘zgarmoqda. Inson ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan 15 turdagi kasblarni (elektrmontyor, payvandlovchi, chilangar, avtotexnik, kran haydovchi, maishiy texnika ustasi, tokar, quyosh panel ustasi, kompyuter ustasi, zargar, oshpaz, sartarosh, massajchi, tikuvchi, ofitsiant) viloyat aholi sonidan kelib chiqib tahlil qildik. Yakunda bu 15 ta kasb bo‘yicha amalda 153,3 ming nafar mutaxassis mavjudligi va 52,7 ming nafar qo‘shimcha mutaxassisga ehtiyoj borligi aniqlandi.

Samarqand shahridagi turizm va madaniy meros texnikumiga shu vaqtgacha 11-sinf bitiruvchilarining 100 nafari shartnoma asosida qabul qilinar edi. Prezidentimizning 190-son farmoniga asosan joriy yildan boshlab 9-sinfni tamomlagan yoshlarni texnikumlarga qabul qilishga ruxsat berildi. Shu yilning o‘zida ushbu texnikumga 540 nafar yoshlar (oldingi yilga nisbatan 5 barobar ko‘p) turizm, mehmonxona xizmati, restoran servisi, oshpazlik, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi.

Shuningdek, vaucher asosida 8 oyda 13,6 ming nafardan ortiq viloyat aholisi 35 turdagi zaruriy, serdaromad va ish beruvchilar talabiga mos bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitildi.

Yil yakunigacha yana 7 ming nafar fuqaroni kasb-hunarga o‘qitamiz. Buning uchun davlat va nodavlat ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab, mehnat bozorini zaruriy bo‘lgan kasblarga to‘ldirish choralari ko‘riladi.



Rivojiddin MAHQULOV, viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i.

SIFATSIZ QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA YO‘L QO‘YILMAYDI

Joriy yilning birinchi yarmida viloyat hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 3079 ta qurilish obyekti davlat nazoratiga olinib, ularda jami 19 ming 180 marotaba monitoring va nazorat tadbirlari amalga oshirildi. Nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan 14 ming 211 ta yozma ko‘rsatma berilgan.

O‘tkazilgan nazorat tadbirlarining 74 foizida qonunbuzilish va kamchiliklar aniqlandi. Yozma ko‘rsatmalarni o‘z vaqtida bajarmagan mas’ul shaxslarga nisbatan jami 325 ta ma’muriy jazo qo‘llanildi. Qurilish tashkilotlarining o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi yuzasidan jami 323 ta, sifatsiz qurilish materiallaridan foydalanish holatlari bo‘yicha 88 ta, litsenziya talablari buzilishi bo‘yicha 10 ta taqdimnoma kiritildi.

Yilning birinchi yarmida o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida 273 ta sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari buzdirildi.

YERTO‘LADAN FOYDALANISHDA 17 TA QONUNBUZILISH BO‘LGAN

2026-yilning birinchi yarmida 541 ta ko‘p xonadonli uy-joyning texnik holati, 384 ta ko‘p kvartirali uyning yerto‘la qismi monitoring tartibida o‘rganilib, natijalari “Uy-joy nazorat” axborot tizimiga kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi qarori ijrosi yuzasidan ko‘p xonadonli uylarning yerto‘lalaridan foydalanish holati o‘rganilib, 17 ta qonunbuzilish holati aniqlandi.

Ma’lumot uchun, kamchiliklarning 13 tasi mulkdorlar tomonidan ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan bo‘lsa, 4 tasi yuzasidan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan, 2 tasi bo‘yicha sudlarga da’vo arizalari kiritilgan. Hozirgi vaqtda 2 ta holat jarayonda.

Tutash yer uchastkalarida o‘tkazilgan monitoringlar natijasida 82 ta noqonuniy qurilish holati aniqlandi.

Inspeksiya tomonidan 541 ta monitoring jarayonida ko‘p xonadonli uylarning tayanch va to‘siq konstruksiyalarini o‘zboshimchalik bilan buzish bilan bog‘liq 59 ta qonunbuzilish holati aniqlandi.

Ko‘p xonadonli uylarning umumiy foydalanishdagi qismlarida, jumladan, kirish yo‘laklari, zina maydonchalari, tom qismi, texnik qavatlar, shamollatish shaxtalari va chiqindi tashlash joylarida o‘tkazilgan monitoringlar natijasida 33 ta qoidabuzarlik aniqlandi.

Prezidentimizning 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori talablari doirasida qurilishi tugallangan va foydalanishga qabul qilingan ko‘p kvartirali uylarda uchrayotgan muammo va kamchiliklarni aniqlash yuzasidan foydalanishga qabul qilingan ko‘p kvartirali uy-joyni dastlabki ikki yil (kafolat muddati)da yuzaga kelgan kamchiliklarni quruvchi tashkilot tomonidan bartaraf etilishi yuzasidan 88 ta uy-joy o‘rganilib, 14 ta kamchilik aniqlandi.

Ma’lumot uchun, 11 tasi joyida bartaraf etildi, 1 ta holatda prokuratura organlariga xat chiqarildi, 2 ta holat jarayonda.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi qarori talablari doirasida bino va inshootlarning ixtisoslashishini o‘zgartirish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurishni loyihalashtirishga ruxsatnoma berish bo‘yicha belgilangan tartibda davlat nazoratini ta’minlash yuzasidan 43 ta ariza o‘rganildi.

KO‘P XONADONLI BOSHQARUVCHILAR KO‘PAYGAN

Viloyatimizda ko‘p xonadonli uylar soni 2025-yilning mos davridagi (2026-yil 1-iyul holatiga) 2650 tadan 2825 taga yetib, 175 taga yoki 6,6 foizga oshgan. Jumladan, Samarqand shahrida ko‘p xonadonli uylar soni 1426 tadan 1530 taga (7,3 foizga), tumanlarda esa 1224 tadan 1295 taga (5,8 foizga) ko‘paygan. Shuningdek, ko‘p xonadonli uylarni boshqaruvchi tashkilotlar soni 64 tadan 70 taga yetib, 9,4 foizga oshgan. Bunda boshqaruv servis kompaniyalari soni 54 tadan 62 taga ko‘paygan.



Shu bilan birga, shirkatlar soni 10 tadan 8 taga kamaygan.

Nazorat tadbirlari natijasida boshqaruv tashkilotlari faoliyatida aniqlangan qonunbuzilishlar soni o‘tgan yilga nisbatan sezilarli oshgan. Agar 2025-yilning birinchi yarmida atigi 3 ta qonunbuzilish holati aniqlangan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkich 27 taga yetgan.

Viloyat bo‘yicha issiqlik ta’minoti tizimlari ham alohida o‘rganildi. 682 ta ko‘p xonadonli uyning issiqlik ta’minoti tizimi monitoringdan o‘tkazilib, 17 ta uyda (2,5 foiz) kamchilik aniqlandi va ular joyida bartaraf etildi.

Boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatini o‘rganish bo‘yicha nazorat tadbirlari 2025-yilning birinchi yarmida 100 tadan ortiq ko‘p xonadonli uy o‘rganilgan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkich 310 tadan ortiqni tashkil etdi. Natijada, ma’muriy javobgarlikka tortilgan boshqaruv tashkilotlari soni 3 tadan 27 taga, ya’ni 9 baravarga ko‘paydi.

Qo‘llanilgan ma’muriy jarimalar summasi ham sezilarli darajada oshdi. 2025-yilning birinchi yarmida 16,9 million so‘m ma’muriy jarima qo‘llanilgan bo‘lsa, 2026-yilning birinchi yarim yilligida 164,8 million so‘mni tashkil etib, 147,9 million so‘mga yoki qariyb 9,7 baravarga oshdi.

KO‘P XONADONLI UYLAR ZILZILALARGA BARDOSHLIMI?

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat hududida Prezidentning 2022-yil 30-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2024-yil 17-apreldagi “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Ushbu hujjatlar ijrosini ta’minlash yuzasidan seysmik zaiflik hamda avariya alomatlari mavjudligini aniqlash maqsadida 1111 ta ko‘p xonadonli uy vizual monitoringdan o‘tkazildi.

Mazkur qaror talablariga muvofiq PASPORTBINO.UZ axborot platformasida 753 ta (67,8 foiz) ko‘p xonadonli uy bo‘yicha ma’lumotlar yangilandi. O‘tkazilgan monitoringlar natijasida 75 ta (6,8 foiz) ko‘p xonadonli uy instrument-texnik tekshiruvdan o‘tkazilishi lozimligi aniqlandi.

Aniqlangan 75 ta uy bo‘yicha tuman (shahar) hokimliklari, boshqaruv servis kompaniyalari hamda favqulodda vaziyatlar bo‘limlariga rasmiy xatlar yuborilib, instrument-texnik tekshiruvlarni tashkil etish yuzasidan tegishli xatlar chiqarildi.

37 HOLATDA ISTE’MOLCHIGA SIFATSIZ SUV YETKAZILGAN

O‘tgan davrda iste’molchilarga yetkazib berilayotgan ichimlik suvi sifatini baholash maqsadida 999 ta laboratoriya namunasi olindi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida 37 holatda (3,7 foiz) ichimlik suvi sifat ko‘rsatkichlari belgilangan me’yorlarga javob bermasligi aniqlanib, suv ta’minoti korxonalariga kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritildi.

Viloyatdagi 24 ta oqova suv tozalash inshooti o‘rganilib, ularda 58 tadan ortiq kamchilik aniqlandi. Natijada “O‘zsuvta’minot” AJ hamda “Samarqand suv ta’minoti” AJga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritildi. Bundan tashqari, oqova suv tarmoqlariga me’yoridan ortiq ifloslantirilgan oqova suvlarni oqizish bilan bog‘liq 24 holat aniqlanib, aybdor shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma’muriy choralar qo‘llanildi.

Akmal SHUKUROV, viloyat hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi boshlig‘i.

Deputat minbari

SAYLOVCHI ISHONCHI amaliy natijalarda

YOKI MAHALLALAR QIYOFASI QANDAY O‘ZGARAYOTGANI HAQIDA QAYDLAR

Deputatlik - bu shunchaki maqom yoki mas’uliyatli lavozim emas. Bu eng avvalo, xalqning dardini tinglash, odamlarning ichiga kirib borish va ular yillar davomida kutgan muammolarga ijobiy yechim topish demakdir. Saylovchilar bilan olib boriladigan har bir uchrashuv, har bir sayyor qabul jamiyatdagi real holatni ko‘rsatuvchi ko‘zgu. Xalq vakili sifatida ish boshlagan ilk kunlarimdanoq mening asosiy shiorim va’dabozlikdan yiroq bo‘lgan holda, real muammolarni izchillik va qat’iyat bilan hal etishdan iborat bo‘ldi.

Bugungi kunda Samarqand shahridagi Chilquduq, Zargartepa, Botir Zokirov, Navro‘z kabi mahallalarda aholi tomonidan ko‘tarilgan muammolarning bosqichma-bosqich hal etilayotgani, hududlar infratuzilmasining yaxshilanayotgani ana shu intilishlarning amaliy ifodasidir.

Saylovchilarimni jiddiy tashvishga solayotgan masalalardan biri – Chilquduq mahallasi hududidan oqib o‘tuvchi Darg‘om kanali ustidagi ko‘prikning ahvoli edi. Bu ko‘prik yillar davomida xizmat qilib, mutlaqo yaroqsiz va harakatlanish uchun xavfli holatga kelib qolgandi. Mahalla ahlining murojaati asosida Samarqand shahar hokimligiga deputatlik so‘rovi yubordim. Maqsad ushbu obyektni qayta qurish va xavfsizlikni ta’minlash edi. Sa’y-harakatlarimiz besamar ketmadi: ko‘prikni qayta qurish rejaga kiritildi.

Ayni paytda kengligi 14 metr bo‘lgan, barcha zamonaviy standartlarga javob beradigan mustahkam va keng ko‘prik barpo etilmoqda.

Sartepa massividagi Zargartepa va Botir Zokirov nomidagi mahallalar ahli bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda hududdan o‘tuvchi yo‘nalishli avtobuslar yo‘qligi aytilgandi.

Masala yuzasidan viloyat transport boshqarmasi hamda shahar hokimligiga deputatlik so‘rovi yuborildi. Transport boshqarmasidan olingan javobga ko‘ra, ayni paytda shaharga yangi, zamonaviy avtobuslar olib kelinmoqda. Ushbu avtobuslar bilan yangi yo‘nalishlar, jumladan, Zargartepa va Botir Zokirov mahallalari orqali qatnov bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi qayd etildi.

Joriy yilning bahorida kuzatilgan kuchli yog‘ingarchiliklar Samarqand shahrining infratuzilmasi uchun jiddiy sinov bo‘ldi. Oqibatda shaharning ayrim hududlari, jumladan, Zargartepa mahallasidagi 82-83-ko‘p qavatli uylarga tutash hududlarda suv to‘planishi va irrigatsiya tizimlarining ishlamay qolishi kuzatildi. Bu esa aholi xonadonlari va ijtimoiy obyektlarga ma’lum darajada xavf tug‘dirdi. Fuqarolarning murojaati asosida mazkur uylar atrofidagi irrigatsiya ariqlarini zudlik bilan ta’mirlash va tozalash masalasi yuzasidan Samarqand shahar hokimligiga deputatlik so‘rovi yubordim.

Hokimlik taqdim etgan javobda vaziyat atroflicha bayon etilgan. Unga ko‘ra, bugungi kunda suv bosish holatlari kuzatilgan barcha hududlar tegishli ixtisoslashtirilgan korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda bosqichma-bosqich o‘rganilmoqda.



Muborak HOSILOVA, xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi deputati.

Hayotini navqiron avlod ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan ustoz va murabbiylarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos. Zero, mamlakatning ertangi taraqqiyoti, avvalo, bugun qanday avlod tarbiyalanayotganiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonda ta’lim eng muhim sohalardan biri, o‘qituvchi va murabbiylar esa eng hurmatli insonlardir”.

QUDRATLI DAVLAT USTOZLAR MEHNATI BILAN YARALADI





DAVR YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLARNI TALAB ETADI

Bugungi jadal o‘zgarishlar davrida ustozning vazifasi yanada kengayib, yoshlarga tayyor bilimlarni yetkazishning o‘zi kifoya qilmayapti. Ularni mustaqil qaror qabul qilishga, tanqidiy va kreativ fikrlashga, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga, o‘z ustida muntazam ishlashga o‘rgatish tobora muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta’lim tizimi yangi mazmun bilan boyimoqda. Professor-o‘qituvchi endi o‘z sohasining bilimdoni bo‘lish bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan, yangilikka intiladigan va talabani ham shunday muhitda rivojlantira oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

Bunda eng muhim jihat, texnologiya inson omilining o‘rnini egallashi emas, balki ustozning imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishida. Chunki ta’limning markazida hamisha inson, uning bilimi, dunyoqarashi va salohiyati turadi.

QARIYB BIR ASRLIK TAJRIBA, BUGUNGI SALOHIYAT

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining qariyb bir asrlik tajribasi alohida ahamiyatga ega. Institut mamlakatimizda iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlashda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri. Institutda bugunga qadar 90 mingga yaqin mutaxassis tayyorlanib, mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Ta’kidlash lozimki, oliy ta’limning vazifasi faqat malakali mutaxassislar tayyorlash bilan cheklanib qolmaydi. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ilmiy va amaliy jihatdan ko‘maklashish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ta’limni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirishda avvalo, ilmiy salohiyat va zamonaviy fikrlaydigan professor-o‘qituvchilar tarkibi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanning rivojlanishi, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi pedagoglar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ilmiy izlanishlarni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayoniga innovatsion yechimlarni tatbiq etish kelgusida ham muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Oliy ta’lim muassasasi nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Talabalarni ish beruvchilar ehtiyojiga mos tayyorlash, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ilmiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etish uchun imkoniyat yaratish lozim.

INSON KAPITALI – TARAQQIYOTNING ASOSIY OMILI

Oliy ta’lim oldida turgan vazifalarning markazida bir maqsad – inson kapitalini rivojlantirish g‘oyasi turadi. Mehnat bozori talablariga javob beradigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning muhim omili.

Bu jarayonda yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning zamonaviy kasblarni egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ta’lim sifatini muntazam oshirib borish alohida ahamiyatga ega.

Ayniqsa, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda talabalarni raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalari bilan qurollantirish tobora dolzarb masala.

Biroq ta’limning mazmuni faqat texnologiya va kasbiy ko‘nikmalar bilan o‘lchanmaydi. Talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, vatanparvarlik ruhida kamol topishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi ham ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ustoz nafaqat bilim beradi, balki insonni hayotga tayyorlaydi, uning qalbida ezgulik, mas’uliyat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Vatanimiz tarixidagi ikki buyuk Renessansni yaratgan ulug‘ mutafakkir va allomalar o‘z davrining ilm ahli va ustozlari tarbiyasini olgan. Ularning ilmiy merosi asrlar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgani ta’lim va ustozlikning jamiyat taraqqiyotidagi uzoq muddatli ta’sirini ko‘rsatadi.

Bugun ana shu ezgu an’analarning munosib davomchilari oldida yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda yuksak ma’naviyat, mustaqil fikr va yaratuvchanlik fazilatlarini shakllantirish orqali Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash vazifasi turibdi.

Ustozning bugungi mehnati faqat bir dars, bir ilmiy maqola yoki bir diplom bilan ro‘yobga chiqmaydi. Uning haqiqiy samarasi yillar o‘tib, shogirdlarining kasbiy faoliyati, ilmiy kashfiyotlari, tadbirkorlik tashabbuslari va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasida namoyon bo‘ladi.

SIFAT VA MAS’ULIYAT – ASOSIY MEZON

Bugun oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar har bir ta’lim muassasasidan o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy, jumladan, xalqaro mezonlarga moslashishni talab etmoqda. Bu jarayonlarni faqat rasmiy talablarni bajarish sifatida emas, balki ta’lim sifatini yanada oshirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq namoyon etish, ta’lim dasturlari va o‘quv jarayonlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyat sifatida qabul qilish muhim.

Buning uchun professor-o‘qituvchilar, xodimlar va butun jamoa yagona maqsad atrofida birlashishi, o‘z faoliyatiga yangicha yondashishi va mavjud salohiyatni to‘liq namoyon etishi talab etiladi.

Bugun ustozlarga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va ehtirom ana shu haqiqatning ifodasi. Ta’limga, ilm-fanga va ustozga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik mamlakatning ertangi kuniga berilgan e’tibordir.

Muhiddin PO‘LATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, homiladorlik paytida ayollarda kamqonlik 68 foiz, toksikoz 64 foiz, homiladorlik davridagi xavfli holatlar 27 foiz, yuqori arterial qon bosimi 25 foiz, yallig‘lanish kasalliklari 51 foiz hamda surunkali kasalliklar 19 foiz qayd etilgan.

Homiladorlikdan emizishgacha:

bola salomatligiga e’tibor qachondan boshlanadi?



Bu ko‘rsatkichlar homiladorlik davrida ona salomatligi va to‘g‘ri ovqatlanish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki onaning salomatligi, kundalik ratsioni va turmush tarzi nafaqat homiladorlikning kechishiga, balki chaqaloqning oziqlanishi va rivojlanishiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqot davomida homilador ayollarning ovqatlanishida ham qator kamchiliklar aniqlangan. Jumladan, boshoqli va dukkakli mahsulotlar, sabzavot, meva va ko‘katlar, sut va sut mahsulotlari, baliq kam iste’mol qilinishi qayd etilgan. Shu bilan birga, onalarning 86 foizi muntazam ravishda sun’iy shirinliklar — novvot va granulalangan shakar iste’mol qilishi, 91–100 foizi esa choyni ko‘p ichishi kuzatilgan.

Bu holatlar ona salomatligi bilan bir qatorda, bolani parvarishlash va oziqlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi. Aslida, bola salomatligiga g‘amxo‘rlik homiladorlik davridan boshlanadi. Chaqaloq dunyoga kelgach uning to‘g‘ri va sifatli oziqlanishi eng muhim masalalardan biriga aylanadi.

Chaqaloq hayotining dastlabki oylarida ona sutining o‘rni beqiyos. U nafaqat bolani zarur ozuqa moddalari bilan ta’minlaydi, balki uning immun tizimi shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ona suti bolaning yoshi va ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgarib boradi. Shu bois chaqaloqni ona suti bilan oziqlantirishga ustuvor ahamiyat berish kerak.

Biroq bugun yosh onalar orasida «Sutim kam», «Bolam to‘ymayapti», degan xavotirli gaplarni ko‘p eshitamiz.

Ayrim holatlarda ona suti haqiqatan ham yetarli bo‘lmasligi mumkin. Ammo sut miqdorining kamayishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi.

Avvalo, onaning bolani kam yoki noto‘g‘ri emizishi, emizish orasidagi vaqtni haddan tashqari uzaytirishi sut ishlab chiqarilishining kamayishiga olib kelishi mumkin. Chunki ona suti ishlab chiqarilishi bolaning ko‘krakni qanchalik tez-tez va to‘g‘ri emishi bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, onaning qattiq charchashi, uyqusizligi, ruhiy zo‘riqishi, ovqatlanishining yetarli va muvozanatli emasligi ham emizish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim holatlarda esa ona yoki boladagi tibbiy muammolar ham laktatsiyaga ta’sir qiladi.

Yana bir muhim jihat bor: chaqaloqning ko‘krakni tez-tez so‘rashi har doim ham «sut yetmayapti» degani emas. Ayniqsa, hayotining dastlabki oylarida bola tez-tez emizishni talab qilishi tabiiy holat. Shuning uchun sut yetarliligini faqat bolaning ko‘krakni necha marta so‘rashiga qarab baholab bo‘lmaydi. Bolaning vazni, umumiy ahvoli va boshqa ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli «sutim kam ekan», degan xulosaga shoshilib, chaqaloqqa qo‘shimcha bo‘tqa yoki sun’iy ozuqa berish to‘g‘ri emas.

Bolani ovqatlantirishda ham majburlash, me’yordan ortiq yedirish yoki kattalar iste’mol qiladigan taomlarni erta berish to‘g‘ri emas. Qo‘shimcha ovqatlar bolaning yoshi va individual ehtiyojidan kelib chiqib, pediatr tavsiyasi asosida bosqichma-bosqich kiritilishi maqsadga muvofiq. Eng muhimi, ona o‘zicha xulosa chiqarmasligi lozim. Agar bolada vazn yetarlicha qo‘shilmayotgan bo‘lsa yoki sut haqiqatan kam ishlab chiqarilayotgani aniqlansa, shifokor buning sababini o‘rganib, ona va bolaga mos tavsiya beradi.

Saydullo RASULOV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasida marhum Ustayarov Rustam Fayzulloyevichga (2021-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Usmanova Zulalga (2010-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 117-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Kurbanov Bazarga (2012-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 156-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Samiyev Xodjakul Mamatkulovichga (2026-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 90-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Nabiyev Xaydarga (2008-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Axtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Yadgarov Shamsiga (2016-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Axtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Yangiariq mahallasi.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Nazarov Bozorga (1994-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani Nog‘oraxona mahallasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Gulom-Xasanova Ziroatga (2024-yil 19-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko‘chasi, 34-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Ganiyev Kobilga (2011-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko‘chasi, 34-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Nabiyev Xursankulga (2004-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Adolatparvar ko‘chasi, 8-uy.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasida marhum Qilicheva Zulfiya Nag‘matovnaga (2025-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Djumaniyazov Atanazarga (2004-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Abdullayev Jasurbek Ashirbayevichga (2026-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

Hech bir kishi o‘z qo‘li bilan mehnat qilib topgan taomidan ko‘ra yaxshiroq rizq yegan emas

Zarafshon

Mulohaza uchun mavzu

Shukr qilish chin insonlik belgisidir

Talabalik paytim Sanjar va Nasim ismli xonadoshlarim bo‘lardi. Uchalamiz uchta oliygohda har xil yo‘nalishlarda o‘qiymiz. Nasim o‘qishga tayyorgarlik payti ham o‘zi ishlab pul topgan. Talaba bo‘lganimizda ham darsdan bo‘sh payti ishlardi, shartnoma pulini o‘zi to‘lardi, gohida bizga ham ish topib berardi. Sanjar bo‘lsa stipendiya tushganda yoki uyidan pul kelganda kerakli-keraksiz narsalarga pulini sarflab, keyin qarz so‘rab yurardi. O‘qishni bitirgach hamma o‘z yo‘lidan ketdi.

Sanjar avval davlat idorasida ishladi, bir muddatdan so‘ng oyligi kam, deya ishdan bo‘shadi, taksichilik qilib ko‘rdi, u ham o‘xshamadi, firmada ishladi, “qo‘ldan berganga qush to‘ymas”, deya u yerdan ham bo‘shadi. Qachon uchrashsak hayotning qiyinligi, zamonning o‘zgarib ketganidan noliydi.

Nasim yaxshi iqtisodchi bo‘ldi, ancha yil moliya sohasida ishladi. Keyin o‘z biznesini ochdi, hozir kattagina korxonasi bor. Har qanday vaziyatda ham shukr qiladi. Ota-onasining duosini olmasdan ko‘chaga chiqmaydi, ularning hurmatini joyiga qo‘yadi.

Hayotning ko‘p sinovlarini ko‘rgan insonlarning tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, yaxshi yashash diplom, tanish-bilish yoki katta merosga bog‘liq emas. Bular yengil pul topishga o‘rganganlar yoki nafsini boshqarolmayotganlar uchun yolg‘on vosita. Hayotingizni yaxshi tomonga o‘zgartirish faqat o‘zingizning qo‘lingizda. Muammolardan nolish yoki boshqalardan yordam kutish vaqtni behuda sarflashdan boshqa narsa emas.

Psixologik o‘rganishlarga ko‘ra, avvalo, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, hayotingizdagi hozirgi vaziyat uchun to‘liq javobgarlikni his qilish lozim. Aniq maqsad qo‘yib, nimaga erishmoqchi ekanligingizni aniqlashtirib oling va ularni kichik, bajarish mumkin bo‘lgan vazifalarga bo‘lib chiqing. Odatlaringizni o‘zgartiring. Har kuni maqsadingizga yaqinlashtiradigan yangi va foydali odatlarni shakllantiring. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash juda muhim.


Psixologiyada doimiy nolish insonning stressni yengish mexanizmi bo‘lishi yoki aksincha, energiyani so‘ruvchi odatga aylanishi mumkin. Hech qanday maqsadsiz, har doim hayotdan, ob-havodan yoki boshqalardan shikoyat qilish – miyani salbiy fikrlarga o‘rgatib qo‘yadi va muammolarni hal qilishga to‘sqinlik qiladi. Har kuni nolish o‘rniga bor narsaga shukr qilishga, shikoyat qilish o‘rniga, muammoni hal etish yo‘llarini izlashga e’tibor qaratish lozim. Noliyotgan vaqtingizni to‘xtatib, vaziyatni qanday yaxshilash mumkinligi haqida o‘ylang. Chunki chetdan kimdir kelib sizning hayotingizni yaxshilab bermaydi.

Kasbimiz taqozosiga ko‘ra hududlarda bo‘lamiz, odamlar bilan uchrashamiz, murojaat, shikoyatlarni o‘rganamiz. Aksariyat shikoyatchilar pul topish qiyinligi, ish yo‘qligi, yashash og‘irlashib borayotganini aytishadi. Hozir yuqori maoshli ish topish mushkulligi bor gap, lekin ayrim odamlar maoshi oz, deb oddiy ishlarda ishlamayotgani haqiqat.

Qadimda bir inson o‘tin terib kuniga bir tanga toparkan va ertadan kechgacha yetkazilgan rizqiga shukr aytib, topgan pulidan har kuni ehson qilarkan. Qolgan puli ota-onasi, er-xotin va yetti nafar farzandining ta’minotiga yetarkan. Buni eshitgan boshqa kishi undan “mening oilam senikidan deyarli uch barobar kichik lekin kuniga to‘rt tangani zo‘rg‘a yetkazaman, sen bir tanga bilan qanday ro‘zg‘or tebratib yana ehson qilasan”, debdi. Haligi inson “o‘tin sotgan pulimga uyga bozorlik qilaman va bir qismini yetimlar, boquvchisini yo‘qotganlar va qiynalganlarga ehson qilaman. Ular “topgan-tutganingga Alloh baraka bersin”, deb duo qilishadi. Yetimlar va ota-onamning duolari tufayli pulim barakali bo‘lib, xarajatlarimdan ortib qoladi” degan ekan.

Ulug‘larning yozib qoldirgan nasihatlariga ko‘ra, kim ne’matlarga shukr qilmasa, batahqiq, uning zavoliga uchraydi. Kim ularga shukr qilsa, batahqiq, ularni arqonlari bilan bog‘laydi. Ibn Atoulloh Sakandariy rahmatullohi alayh ushbu hikmatda shukr ne’matning bardavom bo‘lishiga, noshukrlik esa ne’matning zavol bo‘lishiga sabab ekanini bayon qilgan. Shunday ekan topayotgan pulimizni miqdoriga emas, barakasiga e’tibor qarataylik. Nolish insondan salbiy hislarni ajratadi. Bu hislar oila a’zolarimiz, farzandlarimiz, suhbatdoshlarimizga ham ta’sir o‘tkazadi. Boriga qanoat, sabr va shukr qilish ne’matning ortishi, rizqning kengayishi, mushkulotlarning yechilishi va kengchilikka erishish yo‘li ekanligi muborak risolalarda keltirilgan. Buning uchun nolishning o‘rniga shukr qilish odatimiz bo‘lsin.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.



Inson hayotida rizq va uni topish manbalari azaldan muhim ijtimoiy va axloqiy masalalardan biri bo‘lib kelgan. Moddiy ehtiyojlarni qondirish, kasb-hunar egallash, savdo-sotiq qilish va oila farovonligini ta’minlash har bir shaxsning tabiiy intilishidir. Islom ta’limotida bu jarayon faqat boylik orttirish vositasi sifatida emas, balki halollik, poklik hamda adolat mezonlari asosida baholanadi.

“Ey imon keltirganlar! Sizlarga rizq qilib berganimiz pok narsalardan yenglar va Allohga shukr qilinglar, agar Ungagina ibodat qiladigan bo‘lsangiz” (Baqara surasi 172). Mazkur oyatdagi “pok narsalar” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mufassirlar ushbu ko‘rsatmani faqat iste’mol qilinadigan oziq-ovqatning shar’an ruxsat etilgani bilan cheklamaydilar. Eng muhimi, rizqning qanday manba va usul orqali topilgani nazarda tutiladi. Ya’ni, inson daromadiga firibgarlik, poraxo‘rlik, o‘g‘irlik, zulm va boshqalarning haqi aralashmagan bo‘lishi lozim. Oyatdan anglashiladiki, “rizqning mavjudligi”ning o‘zi kifoya emas, uning manbai va topilish yo‘li insonning ma’naviy va axloqiy mas’uliyatini belgilaydi. Pok manbadan kelgan rizq insonning ichki dunyosini va jamiyatdagi munosabatlarini sog‘lomlashtiruvchi asosiy negizdir.

Buyuk muhaddis Imom Buxoriyning ma’naviy va ilmiy merosida halol rizq va ijtimoiy adolat tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizim sifatida ilgari surilgan. “Al-jomi’ as-Sahih” asarida Miqdom roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadis keltiriladi: “Hech bir kishi o‘z qo‘li bilan mehnat qilib topgan taomidan ko‘ra yaxshiroq rizq yegan emas. Allohning payg‘ambari Dovud alayhissalom ham o‘z qo‘l mehnati bilan taomlanar edilar”.

Mazkur hadisning “Sahihul Buxoriy”ning “Kitobul bay’” (savdo-sotiq) bo‘limida, aynan “Kishining o‘z qo‘li va mehnati bilan topgan kasbi haqidagi bob”da keltirilishi chuqur ma’noga ega. Bu islomda mehnatga axloqiy va ijtimoiy yuksak qadriyat sifatida qaralishini ko‘rsatadi. Mehnat – shunchaki moddiy manfaat olish vositasi emas, balki o‘zgalarga muhtoj bo‘lmay sharaf bilan yashash manbaidir. Hadisda payg‘ambarlik va podshohlik maqomi berilgan Dovud alayhissalomning o‘z qo‘l mehnati bilan rizq topgani misol qilib keltirilishi halol kasb-hunar inson qadr-qimmatini yuksaltirishini anglatadi. “Sahihul Buxoriy”ning “Kitabul Ijora” (ijara va yollanish kitobi), mardikorning ish haqini bermagan kishining gunohi bobida birovning haqiga dahl qilinishi quyidagi “hadisi qudsiy” orqali qattiq taqib qilingan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Alloh taolo aytdi: “Qiyomat kuni Men uch toifa kishiga qarshi da’vogar bo‘laman... (shulardan biri) bir mardikorni ishga yollab, undan to‘liq foydalanib, so‘ng haqini bermagan kishidir”.

Hadisda ishchining haqini bermaslik oddiy ma’muriy kamchilik sifatida emas, balki nihoyatda og‘ir axloqiy jinoyat sifatida ko‘rsatiladi. Chunki ish beruvchi ishchining mehnatidan foydalangan, uning mehnati natijasini olgan, ammo uning haqini bermagan. Bu holatda bir tomon boylik yoki foydaga ega bo‘ladi, ikkinchi tomon esa o‘z mehnati uchun belgilangan haqdan mahrum bo‘ladi.


Hadisning yana bir muhim jihati shundaki, unda “mehnatini to‘liq olgan” mazmuni mavjud. Ya’ni, ish beruvchi ishchidan o‘z vazifasini bajarishni talab qilgan, ishchi esa o‘z majburiyatini ado etgan. Shunday ekan, ish beruvchining majburiyati ham ish haqini berish bilan tugaydi. Bu o‘zaro majburiyat va mas’uliyat tamoyilidir. Mazkur hadis zamonaviy mehnat munosabatlari uchun ham muhim axloqiy mezon beradi. Mehnat shartnomasida belgilangan haqni o‘z vaqtida to‘lash, ishchining mehnatini asossiz kamaytirib baholamaslik, uning mehnatidan foydalanib, keyin haqini kechiktirmaslik ijtimoiy adolatning asosiy talablaridan biridir. Imom Buxoriy merosida mehnat munosabatlari ikki tomonlama mas’uliyat asosida quriladi: ishchi o‘z vazifasini halol va sidqidildan bajaradi; ish beruvchi esa uning haqini adolatli ravishda beradi.

Bayozxon MAHMUDOV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi.

Ko‘ngildagi gap

OZARDAGI QARDOSHLARIM

Bobom, taniqli jadid Saidrizo Alizoda hayoti va ijodiga bog‘liq materiallarni izlab, dunyoning o‘ndan ortiq mamlakatida bo‘ldim. Ayniqsa, musulmon o‘lkalarida O‘zbekistonga, ma’rifatparvar bobomiz merosiga bo‘lgan hurmatni ko‘rib, qalbim tog‘dek ko‘tariladi.



Kuni kecha Ozarbayjondan xushxabar keldi: Prezident Ilhom Aliyev topshirig‘iga ko‘ra ma’naviyatchi ziyolilar bobomning uy-muzeyiga kelishi va u kishining 140 yilligi oldidan hujjatli film qilishi haqida xabar berdilar. Tabiiyki, kamina bunga tayyorgarlik ko‘rdim. Ozarbayjonlik mashhur yozuvchilar, tarixchilar, bastakorlar, davlat arboblari asarlari asosida muzeyimizda burchak qilindi. Chunki bu noyob ashyolarni men yillar davomida yiqqanman. Ular ichida Mirza Aliakbar Tohirzoda Sobirning «Xo‘p-xo‘p noma», Samad Urg‘unning «Oqarma, sochim», O‘zyor Xojibekovning «Arshi mololan», «Go‘ro‘g‘li» operalari matni va boshqalar bor. Asarlarning ayrimlari gramplastinka, ayrimlari esa videotasmada mavjud. Bundan tashqari, Ozarbayjonda chop etilgan tarixiy gazeta va jurnallar to‘plami ham bor.

Qolaversa, 1982-yil 3-fevralda Bokuda Saidrizo Alizodaning 95 yilligi nishonlangan edi. Kamina o‘sha kungi tadbirdagi ma’ruza va so‘zlarning ham matnini yiqqanman.

Bu so‘zlarni bejiz keltirmadim, negaki kamina bobom va buvimdan Samarqandga kelib qolgan ozarbayjonliklar haqida ko‘p bor so‘raganman. Ularning ko‘pchiligi Turkmanistonning Krasnovodsk shahrida tijorat yoki xizmat bilan shug‘ullangan va keyinchalik taqdir taqozosi bilan Samarqandga kelganlar. Xoji Hoshim Ibrohimov, mulla Abbos Rizayev, aka-uka Ja’farov, Hasan Ismoilzoda, Aliakbar Mamedov, Abutolib Rahimov, G‘affor Abdullayev kabilarni aytish mumkin.

Darvoqe, Bokudagi tadbirdan so‘ng Samarqandda bobomning uy-muzeyini ochdik. O‘shanda Ozarbayjonning O‘zbekistondagi birinchi elchisi Aydin Azimbekov bu yerga tashrif buyurib, xursand bo‘lib, muzey xotira kitobiga iliq so‘zlarni yozib ketgandi.

Shu o‘rinda tarixning o‘zim bilgan ayrim lavhalarini hurmatli mushtariylarga aytishni lozim topdim. Chunki yoshim o‘tgan sayin bunday xotiralar hech kim bilmasdan ko‘nglimda armon bo‘lib qolishidan xavotirdaman.

Kamina 1962-yildan 1971-yilgacha Ozarbayjonda – ota-onamning qardoshlari huzurida yashadim. Universitetni bitirib, geolog sifatida Kaspiy dengizida ishladim, neft chiqardim.

Kaspiy dengizi sohilida Qal’a-qo‘rg‘on bor, u XV asrda qurilgan, ichkarisida esa Juma masjidi bor. Shu masjidning imomi Mulla Ibrohim bo‘lgan. Katta onamning otasi Hoji Hoshim ana shu insonning o‘g‘lidir. Bu odam ozarbayjonlik neft korchalonlaridan biri hisoblangan hoji Zaynolobiddin Tag‘iyev poroxodini 40 yil boshqargan. So‘ng Hoshim bobom Turkmaniston orqali Samarqandga kelib qolgan.

Mening buvim Qamarxonim ana shu kishining to‘rtinchi farzandi bo‘lgan. Xullas taniqli ma’rifatparvar Saidrizo Alizoda bobom o‘zining yakka-yu yagona o‘g‘li Said Tag‘i Alizodaga ana shu momoning to‘rtinchi farzandi Hashpat xonimni nikohlab bergan.

Bir so‘z bilan aytganda bir tomondan avlodlar bir-birini topishgan, ikkinchi tomondan 1930-yildan keyin boshlangan notinchliklar to Ikkinchi jahon urushi tugagunga qadar va hatto undan keyin ham bizlarni bordi-keldidan mosuvo qildi. Qamarbibim 1932-yilda, sal o‘tmay Hoji Xoshim bobom 98 yoshida vafot etdi. Qizig‘i shundaki, ularni o‘z vasiyatlariga ko‘ra, Samarqanddagi Panjob qabristonida dafn etishgan.

Men 1959-yilda armiyadan qaytganimdan so‘ng onam bilan dildan suhbatlashdim. Ko‘plab taniqli qarindoshlarim taqdirini so‘radim. O‘shanda o‘rtamizdagi aloqalar nega buzilganini onam ro‘y-rost gapirdi.

– Bolam, bobong sovet davlatiga qarshi degan tuhmat bilan qamalgach, sulolamizga putur ketdi, - dedi onam. – Bobongni Angliyaning shpioni deb qamashdi. Vaholanki, xalq orasida bu inson millatparvar jadid edi. Butun oilamizga, hatto Saidabegim ammangning turmush o‘rtog‘i Hasan Irfonga ham xalq dushmani tamg‘asi qo‘yildi. Biror yoqqa chiqa olmay qoldik, ishga joylashish qiyin edi.

O‘shanda onam qo‘limga 1914-yilda Bokuda tushirilgan bir suratni berdilar, ular tog‘alarim ekan. «Shularni topgin», dedilar.

Tabiiyki, bitta suratga qarab ellik yil avvalgi odamlarni tanish, topish qiyin. Lekin men ancha izlanish va mashaqqatlardan keyin 80 yoshli Ibrohim tog‘amni topdim. U kishi bilan birga yuqorida eslatganim – Juma masjidining orqasida joylashgan, bobom yashagan eski xonadonga kirdik. Bizni 103 yoshli kampir kutib oldi. Bu nuroniy ayol Ibrohim tog‘amning amakilarining qizi ekan. Boyaqish rosa xursand bo‘ldi. Qariyb 40 yildan buyon bizlarni izlab yurganligini yig‘lab-yig‘lab aytdi.

Ehtimol, kimgadir bu holatim unchalik qiziq tuyulmas. Lekin Saidrizo Alizodaning yalovli so‘zlari yetib borgan mamlakatlardagi odamlarning munosabatlari, ayniqsa, onam tomonidan men uchun qadrli bo‘lgan insonlarning hayotlari umrimga umr qo‘shadi. Bu xotiralar meni ezgulikka boshlaydi. Ana shunday paytda O‘zbekiston va Ozarbayjon prezidentlari Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning bir-biriga do‘stona munosabatlari ko‘nglimga quvonch baxsh etadi. Chunki biz, turkiylar yillar davomida baqamti yashadik, ishladik, fikrladik va kam bo‘lmadik. Nasib etsa, ana shu ezgu ish davlat rahbarlarining ma’naviy jasorati tufayli yana davom etadi. Demak, mening tog‘alarim ruhi shod bo‘ladi, ma’rifatparvar bobom Saidrizo Alizodaning ilm qudratiga chorlovlari xalqlarimiz shuuriga qudrat bag‘ishlayveradi.

Farhod ALIZODA,
Saidrizo Alizoda uy-muzeyi direktori.



Payariqda qadimiy qabr qoldiqlari va taqinchoqlar topildi

Tumanning Darvozag‘aza qishlog‘ida yer qazish ishlari jarayonida fuqaro hovlisidan qadimiy qabr qoldiqlari aniqlandi. Qazish jarayonida inson suyak qoldiqlari, bronzadan yasalgan bilaguzuklar, turli taqinchoqlar va mayda munchoqlar topilgan.

Fuqaro topilma haqida Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga xabar bergan. Institut mutaxassislari tomonidan topilma joyi ko‘zdan kechirilib, aniqlangan arxeologik ashyolar va inson suyak qoldiqlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, ilmiy o‘rganish uchun qabul qilib olindi.

- Dastlabki kuzatuvlarga ko‘ra, topilgan bronza bilaguzuklarning ayrimlari konussimon uchlari va spiralsimon bezaklari bilan ajralib turadi, - deydi Samarqand arxeologiya instituti direktori Mo‘minxon Saidov. - Ularning shakli va bezak xususiyatlari bronza davrining so‘nggi bosqichida yashagan dasht chorvador qabilalari madaniyatiga xos taqinchoqlar bilan o‘xshashlik kasb etadi. Zarafshon vodiysidagi qator manzilgoh va qabristonlardan ham bronza davriga oid, dasht chorvador aholisining madaniyati bilan bog‘liq arxeologik materiallar aniqlangan. Bunday yodgorliklar, odatda, miloddan avvalgi XIII–X asrlar bilan tasnif qilinadi va Andronovo–Tozabog‘yob madaniy doirasi bilan bog‘lanadi. Hozircha Darvozag‘aza qishlog‘ida aniqlangan yangi topilmaning aniq davri va madaniy mansubligi uzil-kesil belgilanmadi. Mazkur masalaga maxsus arxeologik qazishmalar, antropologik tadqiqotlar hamda metall buyumlarning laboratoriya tahlillari natijasida aniqlik kiritiladi.

F.RO‘ZIBOYEV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 8 975 nusxada chop etildi. Buyurtma 383. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: D.TO‘XTAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda